

International research journal

PEDAGOGS

ISSN:2181-3027

30

Issue-3



$1 + 5 =$ 
 $A +$
 $\frac{8}{12}$



PEDAGOGLAR.UZ

Scientific Research Center

PEDAGOGS

legal, medical, social, scientific journal

Volume-30, Issue-3, March-2023

IN ALL AREAS



TAHRIRIYAT | EDITORIAL

Editor in chief

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Executive Secretary

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at**Uzbekistan District 49 Secondary School***Preparing for publishing**

Kholikov Tokhirjon Shavkatjon ugli

*CODEMI academy teacher***Bosh muharrir**

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Mas'ul kotib

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiy o'rta**ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi***Nashrga tayyorlovchi**

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li

CODEMI akademiyasi o'qituvchi

TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

Inobatxot Mirzaraximova*Rishton tuman XTB mudiri****Umida Barzieva****Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarma metodisti****O'rinov Ahmadjon Qo'shaqovich****Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor****Toshboltayev Muhammadjon****Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor****Qodirov Nabijon O'lmasovich****O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)****Turdiyev Azizbek Anvarovich****O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist****Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich****Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD****Mohinur Saidova****Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent****Sharifaxon Xakimova****Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi*

TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

UZB: 712000. *Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy*
www.pedagoglar.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

ENG: 712000. *Fergana region, Rishtan city, Park park street 24*
www.pedagoglar.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

ALISHER NAVOIY IJODIDA ISHQ VA OSHIQLIK

Tangriyeva Ondagul Murodjon qizi

Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va

Adabiy manbashunoslik (tillar bo`yicha) 2-kurs magistranti

E-mail: o.m.tangriyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Alisher Navoiy ijodida ishq yetakchi mavzudir. Maqolada Navoiyning foriy devonidagi g`azal tahlili orqali Navoiy ijodida ishqning ikki ko`rinishi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so`zlar: Ishq, oshiqlik, ilohiy ishq, “Devoni Foni”, forscha g`azal.

Alisher Navoiy ijodida ishq eng muhim mavzulardan biridir. U ayniqsa shoirning odamzod va jamiyat to`g`risidagi qarashlari badiiy tarzda mujassam etilgan “Xamsa” asarining bosh maqsadini tashkil qiladi.

Bo`lmasa ishq, ikki jahon bo`lmasin,
Ikki jahon demaki jon bo`lmasin¹

Alisher Navoiyning forscha g`azallarida ham bosh mavzu Ishq mavzusidir.

Bilamizki, Navoiy ijodida ham ilohiy ham majoziy ishq o`zaro jiplashib, uyg`unlashib ketgan. Lekin bu Navoiyning barcha g`azallarida ilohiy ishq bor degan tushunchani anglatmaydi.

“Devoni Foni” tarkibiga kirgan g`azallarda ham biz ham ilohiy ham majoziy ishq kuylangan holatlarga duch kelamiz. Quyidagi g`azal bilan fikrlarimizni davom ettiramiz

Zi man, ey dil, kafi on noznin bo`s,
Agar xud dast nadihad ostin bo`s.
Gar in ham nest bo`se bar zamin zan,
Zi man ya`ni rason on jo zaminbo`s
Kafi poi sagash bo`sidanam bin,
Turo ham gar dihad dast inchunun bo`s,
Zanam dar bog` be on qomatu ruh
Ba poi sarvu ro`i yosamin bo`s
Daromad mehr az ravzan, ki girad
Zi poi on mahi hirgahnishin bo`s.

¹ Abdulla A`zam. Ishq sirrin notavonlardan so`rung. O`zbekiston adabiyoti va san`ati. 2007-yil, 48-son

G`ulomi onam, ey ruhulloh az jon,
Ki dastashro dihad ruhul-amin, bo`s
Agar on mah fitad dar dasti Foniy,
Ba poyash kori o` boshad hamin bo`s.

Bu g`azalda ta`riflangan ishq ilohoy ishqdan ko`ra majoziy ishqqa yaqin turadi. Undagi baytlar mazmun jihatdan majoziy ishq haqidadir. Birinchi baytning mazmuni quyidagicha:

Ey dil, mening nomimdan ul nozaninning qo`lini o`p,
Agar u qo`lini bermasa, unda uning yengini o`p

Birinchi baytdan ham xulosa qilish mumkinki, yor bu go`zal qiz. Lirik qahramon yorning qo`lini o`pishini dildan iltimos qiladi. G`azalda yorda insonga xos xususiyatlar yaqqol ko`zga tashlanadi. Keyingi baytlarda oshiqning firoqi va hijroni darajasi orttirilib boraveradi. 2- baytda oshiq agar yor hatto yengini o`pishga ham rozi bo`lmasa, unda dil yor oldida yer o`pishi kerak. Bu ham ishq yo`lida firoq chekkan oshiqning ruhiy holatini ko`rsatishning bir vositasidir.

Kafi poi sagash bo`sidanam bin,
Turo ham gar dihad dast inchunun bo`s.

Baytning mazmuni esa quyidagicha:

Ey dil, itining oyog`ini o`pishimni ko`r,
Agar sen ham imkon topsang, shunday qil!

Bu baytda oshiqning muhabbati shu darajaga yetib boradiki, oshiq yor tugul unung itining oyoqlarini o`pishga ham rozi. Bu esa juda kuchli muhabbatning namunasidir. Keyingi baytda oshiq yorni sarv araxti va yosamin guliga qiyos qiladi. Biz bilamizki, mumtoz adabiyotda yorning tik qomatini sarv daraxtiga o`xshatish va yor yuzini gulga o`xshatish an`anaviy tasvir vositasi bo`lib hisoblanadi. Ushbu g`azalda esa bu o`xshatishlar to`g`ridan-to`g`ri ko`zga tashlanmaydi. Lirik qahramon:

Bog`da uning qomati bilan chehrasi bo`lmasa ,
Sarvning oyog`I bilan yosamin gulining yuzini o`paman.

Aynan mana shu baytda tashbehning yashirinib kelganiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Zimdan yorning qomati va yuzi an`anaviy o`xshatish vositasiga aynan o`xshatilgan. Bu esa Navoiyning yuksak mahorat egasi ekanligidan darak beradi. Keyingi baytda lirik qahramon go`zal qizni oyga o`xshatadi va qizning oyog`ini o`pish uchun hatto ko`kdagi quyoshning yerga tushishi tasvirlangan. Bu baytda tashbeh va jonlashtirish san`atridan unumli foydalanilgan.

Gʻazalning 6- baytida Naviyning asl maqsadi oʻrtaga chiqadi. U mana shu begona bayt orqali oʻzida mujassam boʻlgan:

Gʻulomi onam, ey ruhulloh az jon
Ki dastashro dihad ruhul-amin, boʻs.

Baytning mazmuni esa quyidagicha:

Ey Iso, men jabroilga qoʻlini oʻptiradigan
(muhtaram) zotga jonim bilan qulman.

Bu baytda bandaning Alloh oldida bir ojiz qulligiga ishora bor. Asl Haq ishqiy yuragida boʻlgan kishilarda esa bu qullik eng katta baxtdir. Navoiy bu baytda shunga ishora qiladi va oʻzining qalbidagi Allohga boʻlgan ishqini taʼkidlab oʻtadi.

Oxirgi baytda gʻazal yana oʻz ritmiga, mazmuniga qaytadi. Va oshiq shirin hayollar ogʻushida qoladi. Ul oy yaʼni gozal qiz Foniyning qoʻliga tushsa, yaʼni uning muhabbatini qabul qilsa, oshiqning ishi uning oyogʻini oʻpish boʻlsin deydi lirik qahramon. Aynan mana shu baytda ilohiy ishq yana majoziy ishqqa oʻrin boʻshatib beradi. Yorning gozal qiz ekanligi oʻz tasdigʻini topadi.

Koʻrinib turganidek, Navoiy ijodida xoh u turkiyda yaratilgan boʻlsin, xoh forsiyda boʻlsin unda eng sof tuygʻu boʻlgan muhabbat va ishq mavzulari yetakchilik qiladi. Bu asarlarda insonning insonga boʻlgan sof muhabbati bilan birga bandaning Ollohga boʻlgan haqiqiy ishqiy ham oʻz ifodasini topgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. A.Navoiy.Mukammal asarlar toʻplami . 15 tomlik, 5-tom,2-kitob.Toshkent.Badiiy adabiyot nashryoti-1965
2. Abdulla Aʼzam. Ishq sirrin notavonlardan soʻrung. Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati.2007-yil,48-son
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20 tomlik, 18-tom. Toshkent. Fan nashryoti-2002

Elektron saytlar:

w.w.w.arxiv.uz

w.w.w.kh-davron.uz

uz.wikipedia.org

INTERACTIVE METHODS IN THE ORGANIZATION OF EDUCATION

Feruza Uralova Fakhridin kizi

Uzbekistan State University of World Languages German language

Tel: 976721936

Abstract: In this article, the formation of general education subjects at a high level among the youth of our country, achieving the specified results by using various innovative methods to ensure the quality of teaching general education subjects in this process.

Key words: education, globalization, interactive method, educational technology, lesson.

The rapid development of the field of education at the world level since the last quarter of the 20th century indicates that it has an important place in the development of man and society. It is through education that the cultural heritage of human society is passed from generation to generation, professional knowledge and level are achieved, as well as the moral image of the people and principles of universal tolerance are formed through education. It should be noted that in the conditions of globalization, the level of education has an integral effect on the life activities of people in civil society, which is developing more and more on a global scale, including health, political activity, the speed of assimilation of news, harmful the ability to consciously analyze thoughts, etc. is clearly manifested in others. In such historical conditions, the importance of education on a global scale has steadily increased, and it has become one of the most important factors in bringing not only the economy, but also the entire society to a new level in terms of quality. In order to increase the effectiveness of education, to ensure that the individual is at the center of education and to ensure that young people get independent education, they are well-trained in educational institutions and, in addition to having solid knowledge in their field, they know modern pedagogical technologies and interactive methods. teachers who know the rules of use in organizing educational and educational activities are needed.[4] For this, it is necessary to arm all subject teachers with new pedagogical technologies and interactive methods and continuously improve their skills in applying the knowledge they have acquired in educational activities. The purpose of education is to provide the student with the knowledge and skills specified in the state educational standards. [5] Learning can be considered successful when knowledge is accepted and understood by the student. It is known that the process of education is the process of developing spiritual and mental abilities, forming knowledge and concepts, and forming the ability to use the acquired knowledge. Picture 1. The teacher's goals for his lesson President of the

Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev said, "Innovation is the future. If we start building our great future today, we should start it on the basis of innovative ideas and an innovative approach" emphasizes the need to introduce new technologies and innovations in the minds of pupils and students. Innovative technologies are innovations and changes in the pedagogical process and the activities of teachers and students, and interactive methods are mainly used in its implementation. Interactive means "to interact" or to be in conversation with someone. The role of the teacher in such lessons leads to the direction of the students' activities to achieve the goals of the lesson. The advantages of organizing lessons using interactive methods: — It leads to better mastering of the teaching content; - Educational relations are established between the student and the teacher in due time; - Teaching methods take different forms during the educational process.[3] Today's educational process has become a requirement of our time to incorporate innovative technologies. The reason for this is that as a result of the rapid development of science and technology, there is a sharp increase in information, and the limitation of time to use it in the educational process creates the need for a technological approach to the educational process. Organization and conduct of lessons on the basis of modern innovative technologies in teaching foreign languages to young students in educational institutions serves to further increase the quality of education. If innovation means introducing something new, technology means art and skill. The pedagogue should creatively approach the lesson with his skills, experience and intelligence and bring something new. In this regard, the use of interactive methods in the lesson gives the intended result. Interactive methods are collective thinking, that is, they are methods of pedagogical influence and are a component of the educational content. The meaning of teaching on the basis of new pedagogical and innovative technologies is the ability to master the lesson while striving for innovation. Unlike traditional education, the learner is given ample opportunity to think independently.[2] The following technologies can be used to further increase the students' interest in the lesson process and subjects: "Brainstorming" method - the teacher designs the topic that the student should master step by step from simple to complex; The "Networks" method is aimed at teaching the student to think logically, to expand the scope of general thought, to use literature independently; The "3×4" method is aimed at making students think freely, be able to give different ideas in a wide range, be able to analyze, draw conclusions, and describe in the educational process individually and in small groups; The "Blitz-game" method is aimed at teaching the correct organization of the sequence of actions, logical thinking, and how to choose what is needed from many, diverse ideas and information based on the subject being studied. In the process of teaching foreign languages, the use of modern pedagogical and information technologies, the use of interactive and didactic games and exercises to ensure the active participation of students in the lesson

serves to ensure the high efficiency of each lesson. [1] Since language teaching requires a lot of work and skill from pedagogues-teachers, it is necessary to first of all be able to interest the student in this subject. Games not only strengthen students' knowledge, but also develop their quickness, intelligence and resourcefulness. It is also possible to increase students' interest and activity by using the following types of games during the lesson: Last Man Standing. This game is a quick game. But it gives the students some time to think. This game encourages joint learning, that is, while other students are talking, the rest of the students are thinking of words themselves.

To play the game, you need a ball and all students must stand in a circle. You need to choose a topic. For example: Things found in a kitchen, food, profession, etc. [3]. Pictionary. Most English speakers are familiar with Pictionary, a drawing game. For the purpose of drawing, you can use a regular whiteboard or a white magnetic board. Divide the class into 2 groups and draw a chart on one side of the board for each team. You will enter the scores of the teams here. One person from team A comes out. And he chooses one of the many upside down words and draws that word on the board and the others have to find it. Charades. Charades is similar to Pictionary, but the main difference is that actions are used instead of pictures to express words. This game is very useful when your students are lazy, bored and sleepy.

Conclusion:

Another advantage of pedagogical interactive methods is that it helps all students in the group to participate equally actively, to think freely and independently, to attract them to creativity and research, to increase interest in science, and in the educational process, the teacher and student "ensures the student's cooperative action. One of the main tasks of the education system is the introduction of advanced methods using modern pedagogical and innovative technologies in teaching foreign languages. Pedagogical interactive methods in teaching also serve as a factor of development.

References:

1. SH. M. Mirziyoev "We will build our great future together with our brave and noble people." Tashkent Uzbekistan 2017.
2. Fundamentals of innovative pedagogical technology. M. Kamoliddinov, B. Vahobjonov. Educational manual. Tashkent, "Talqin" 2010. [2]
3. Technology of teaching methodological subjects in preschool education. N. N. Djamilova. Study guide. Tashkent 2017. [3]
4. "Learning vocabulary by means of visualization". / Ed. LV Bankevich. Leningrad: Publishing Mouse of Leningrad University, 1984.[4]
5. www.ziyonet.uz [5]

SILNING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Yuldashev Axrorjon Holmatjon o'g'li
Axmedova Mahmuda Yusupovna
Tojiboyeva Dilrabo Solijonovna*

Annotatsiya: Sil, dunyo miqyosida dolzarb, tibbiy-ijtimoiy muammo bo'lib hisoblanadi. Yer yuzida yuz berayotgan ekologik muammolar, ijtimoiy o'zgarishlar natijasida sil kasalligi keng ko'lamda tarqalmoqda ketishiga sabab bo'lmoqda. Tezida silning ayrim epidemiologic xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sil, epidemiologik vaziyat, epidemiologik xususiyatlari.

KIRISH

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra yer yuzida taxminan 2,1 milliard odam sil bilan zararlangan. Dunyo aholisining deyarli uchdan bir qismi sil kasalligini o'ziga yuqtirmoqda. Silning zararli turi bilan og'rikan bitta bemor o'z vaqtida aniqlanib davolanmasa yiliga o'rta hisobda 10-12 kishiga sil mikobakteriyasini yuqtirish ehtimoli bor [1].

Har yili dunyoda bir millionga yaqin xotin-qizlar sil kasalligidan nobud bo'lmoqda. Bu ko'rsatkich onalar o'limining umumiy ko'rsatkichida salmoqli o'rin tutadi [2].

Sil kasalliklari surunkali kechishi tufayli batsilla ajratuvchilar soni yil sayin ortib bormoqda, bu esa OITS infeksiyasining keng ko'lamda tarqalishida ham asosiy o'rin tutmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Yer yuzida sil kasalligi bilan zararlanganlar soni turli mamlakatlarda 100000 aholiga nisbatan turlicha: Afrika davlatlarida – 179,6, Amerika davlatida - 32,7 Sharq va o'rta yer dengizida – 74,7, Yevropa davlatlarida – 29,6, Osiyo va janubiy sharq davlatlarida - 146,7, Tinch okean orti davlatlarida – 54,5 ni tashkil qilmoqda. Rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda OITS bilan zararlanish zamirida silning rivojlanish davri ortmoqda. Mamlakatlar aro aloqalarning keng rivojlanishi, aholining bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatlarga ko'chib yurishi natijasida sil mikobakteriyasini tashuvchilar soni ortmoqda.

Sil kasalliklarining epidemiologiyasi boshqa yuqumli kasalliklar epidemiologiyasidan tubdan farqlanadi.

Sil kasalligi epidemiologiyasida, kasallikning tarqalish jarayoni, surunkali kechishi, odam organizmida ushbu xastalikka nisbatan immunobiologik holatning o'zgaruvchanligi, shuningdek jamiyatning ijtimoiy holati, aholining iqtisodiy, yashash va maishiy shart-sharoitlari muhim ahamiyatga ega.

Sil mikobakteriyasining manbai silning yuqumli shakli bilan kasallangan bemorlar hisoblanadi, bunda faol oʻpka silini boshidan kechirayotgan bemorlar asosiy oʻrin egallaydi. Oʻpkadagi faol sil jarayoni doimo qoʻzgʻatuvchining ajralishi bilan oʻtadi. Ajralib chiqadigan mikobakteriyalar soni kasallikning kechish bosqichi, oʻpka toʻqimasi shikastlanishi va jarohatning katta-kichikligiga bogʻliq holda keskin oʻzgarib turadi. Oʻpka toʻqimasining parchalanish bosqichidagi bemorlar eng xavfli infeksiya manbai hisoblanadi [2].

Soʻnggi yillarda bolalarning silga chalinish dinamikasi tahlil etilganda bu koʻrsatkich 2,4 barobar oshgan. Faol sil kasali ilk bor aniqlangan bolalarning 50% dan ziyodini 10-14 yoshdagilar, 40% ni esa 5-9 yoshdagi bolalar tashkil qilmoqda.

Faol sil kasalligi bilan 19876 nafar bemor aniqlangan bulsa, shular orasida oʻpka siliga chalinganlar soni 89,3% ni, boshqa turga chalinganlar soni 10,7% ni tashkil qilgan. Sil kasalliklarining birlamchi yuqtirish darajasi barqaror saqlanib qolmoqda.

Sil kasalliklari ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik nochor mintaqalar, jumladan Orol boʻyi xududlarida koʻp tarqalganligi qayd etilmoqda. Qoraqalpogʻiston Respublikasida birlamchi yuqtirish darajasi 2,2 %, Xorazm viloyatida - 2,4%, Samarqand viloyatida -2,9% ni tashkil qilgan. Sil kasalliklarining tarqalishi va davolashni nazorat qilish yetarlicha emasligi sil kasalliklari koʻpayishiga olib kelmoqda.

Sil bemorlarining 30% bakteriya chiqaruvchi silga chalingan boʻlib, uzoq muddat davolashni talab qilmoqda va epidemiologik jihatdan eng xavfli hisoblanadi. Uzoq muddat kasal boʻlganlarning har besh nafaridan biri sil kasalligi oqibatida nogiron boʻlib qolmoqda.

Soʻnggi yillarda silning umum eʼtirof etilgan antibakterial dorilar bilan davolash qiyin boʻlgan antibiotiklarga chidamli shakli koʻp uchramoqda. Soʻnggi oʻttiz yil mobaynida sil mikobakteriyalari birlamchi chidamliligi 3,8 barobar, dorilarga nisbatan chidamlilik 10 barobar oshgan.

Sil kasalligining xozirgi kundagi zamonaviy epidemiologik xususiyatlari, laborotariya tashxisot usullaridan foydalanib sil infeksiyasini batafsil oʻrganishni, sil infeksiyalarining epidemiologik nazorat tizimini takomillashtirish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Sil kasalligi bilan ogʻrigan bemorlar oʻz vaqtida aniqlanib davolanmasa, yuzlab kishilar sil kasalligini yuqtirish ehtimoli yuqori ekanligi aniqlangan.

Jahon Sogʻliqni Saqlash Tashkilotida silning ijtimoiy-gigienik muammo ekanligini eʼtiborga olib, bu infeksiyaning epidemiologiyasini chuqur oʻrganish uni bosqichma-bosqich tugatish boʻyicha dastur ishlab chiqilgan. Ushbu dasturga muvofiq silga qarshi kurashning dastlabki bosqichida majmuaviy chora – tadbirlar har bir mamlakatdagi epidemiologik vaziyatga asosan ilmiy – tadqiqot ishlar natijalariga tayanib olib borilishi kerak.

XULOSA VA MUNOZARA

Silga chalingan bemorlar kasallikning boshlang‘ich bosqichlarida erta aniqlansa, og‘ir asoratlar yuzaga kelishining oldi olingan bo‘lib epidemiologik jihatdan xavfli infeksiya manbalari paydo bo‘lishi ehtimoli kamayadi, bu esa sil bilankasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib keladi, natijada epidemiologik vaziyat yaxshilanadi va jamiyat uchun katta iqtisodiy zararning oldi olingan bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashirmatov M.D., Rahimov M.R. OIV infeksiyasi fonida sil kasalligi kursining xususiyatlari. OIV infeksiyasini tashxislash, oldini olish va davolashda zamonaviy yondashuvlar. Mater. Ilmiy-amaliy. konf. Toshkent, 2010; 90-91.
2. Bogorodskaya E.M., Sterlikov S.A., Popov S.A. Sil kasalligining epidemiologik ko‘rsatkichlarini shakllantirish muammolari. Sil kasalligi va o‘pka kasalliklari. 2018; 7:8–14.
3. Daminov T.A. OIV infeksiyasi. O‘qitish usuli. Foyda. Toshkent, 2010; 199.

NUTQ MADANIYATI VA TEXNIKASI

Navbaxor Nazarmuhamedova Saparboyevna

Toshkent shahar Yunusobod tumani 4 mavze

302 - maktab pedagog-psixolog

Tel: 977256145

Tabiat kuchlarini bilish va egallashda juda qisqa vaqt maboynda g'oyat katta muvaffaqiyatlarga erishuvchi odamning hamma boshqa jonzotlar - hayvonlardan farqli tomoni ularda tilning mavjudligidir. O'zining ongi - tili va nutqi bilan inson hamma narsadan ustun turadi.

Til jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi kuch va millatning mavjudligini ko'satuvchi belgilardan biri hamdir.

Barcha rivojlangan davlatlarda bo'lganidek bizda ham o'z milliy tilimizni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbek tili bizda davlat tili deb e'lon qilingan va shunga amal qilinmoqda.

YUrtboshimiz I.Karimov o'z nutqlarida chet tillarni o'rganishning ahamiyati muhimligini ko'rsatish bilan birga yana shunday deydi: "Ammo shunga alohida urg'u berishimiz zarurki, chet tillarni o'rganish, minba'd ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmaligi lozim.

O'z fikrini mutloqo mutaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalombor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"¹.

Til aloqa vositasi yoki qurolidir, nutq esa aloqa jarayonining o'zidir.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy - tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z harakatlarini rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq qanchalik chiroyli, mazmundor bo'lsa kishilarni o'ziga shunchalik jalb etadi. Bu masalaga kishilar qadimdan qiziqib kelishgan. Qadimgi YUnoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilgan. Notqlik san'at darajasiga ko'tarilgan. Ularda yetuk inson bo'lish uchun notqlik san'atini egallashlari shart bo'lgan. 335 yilda Aristotelning "Ritorika"si yaratiladi. sitseronning "Notiq haqida", "Notiq"asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq tayyorlash to'g'risida" asari ham notqlik san'ati haqidadir.

SHarqda, jumladan Movarounnahrda ham va'zxonlikka katta e'tibor berilgan. Va'zxonlik notqlik san'atining o'sib borishi bilan nutq oldiga qo'yilgan talablar ham mukammallashib boradi. Buyuk allomalar Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Maxmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Kaykovus va boshqalar tilga, mantiqshunoslik va notqlikka oid asarlar yaratdilar.

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. "Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening suz bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar ...", deb yozadi alloma. U yana notiq xalq tilini, uning fikri va ruhiyatini bilishi kerak deydi.

Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzish bayroqdoridir. U o'z ijodi bilan o'zbek adabiy tiliga asos soldi. Bu tilning boyliklarini namoyon etdi. Navoiyning "Muhokamatul - lug'atayn", "Mahbubul - qulub", "Nazmul javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga uning yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi. "Mahbubul qulub" asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq madaniyati haqida muhim fikrlar beriladi.

"Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz". "Tilini tiyolgan odam - donishmand oqil; so'zga erk bergan odam - beandishaa va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi, til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi".

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ЎҚИТУВЧИ КОНЦЕПТЛИ ПАРЕМАЛАРНИНГ ЧОҒИШТИРМА ТАҲЛИЛИ

Хуррамова Гулноз Хуррамовна

*Денов Тадбиркорлик ва Педагогика Институтини
Хорижий тил ва адабиёти йўналишини магистранти*

Аннотация: Ушбу мақолада инглиз тилшунослигида паремиологик бирлик ҳисобланган мақолалар тадқиқ этилган бўлиб, унда мақолларни лингвистик моҳияти инглиз ва ўзбек тилларида амалий мисоллар асосида таҳлил килинган.

Калит сўзлар: Парема, мақол, лингвистик ва қiyosiy, мақолларнинг эквиваленти.

Abstract: The article explores proverbs that are considered a paremiological unit in English linguistics, in which the linguistic and comparative essence of Proverbs is analyzed on the basis of practical examples in English and Uzbek.

Keywords: Parema, proverb, linguistic and comparative, equivalent of Proverbs.

Инглиз тилида *teacher* лексемаси ўзбек тилидаги ўқитувчи ва муаллим сўзига эквивалент бўлади. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”га кўра, ўқитувчи фан тарбия асосларидан бирини ўқитадиган дарс берадиган киши; муаллим¹ сўзлари билан изоҳланади. Ўқитувчилик, муаллимлик – буюк мақом, чунки пайғамбарлар ҳам қайсидир маънода муаллим бўлганлар.

Муаллим сўзининг маъноси илм берувчи, таълим берувчи, ўргатувчи демакдир. Пайғамбарлар инсониятга эзгуликни ўргатганлар. Ана шунинг ўзиёқ устозлик қай даражада буюк мақом эканини кўрсатади.

Инглизча *Teacher, Like / like pupil* мақоли “ўқитувчиси қанақа бўлса, ўқувчиси шунақа” мазмунини билдиради. Бу мақолга ўзбек тилидаги *Устози қандай – шогирди шундай* мақоли эквивалент бўлади. Инглиз халқ мақолидаги *teacher* сўзи ўзбекча *ўқитувчи* сўзини англатади. Бу мақолда инглиз тилида ҳам ўзбек тилида ҳам *teacher*, яъни *ўқитувчи* лексемаси иштирок этаяпти, аммо ҳар бир тил ўз лексемасидан келиб чиққан ҳолда сўз қўллайди. Агар ўхшаш томонларини кўриб чиқадиган бўлсак, ҳар иккала тилда ҳам устозига қараб ўқувчисига баҳо бер деган маънода қўлланиляпти. Аммо айрим сўзлар фақат шу тилга оид лексемалардир ва ҳар иккала халқнинг фақат ўзигагина хос бўлган одатларини ифодалайди.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти // [www.ziyouz.com kutubxonasi].

Инглизча *Our first teacher is our own heart*² мақоли ўзбек тилида “бизнинг биринчи устозимиз ўз юрагимиз” маъносини англатади. Бу ўзбек тилида *Устоз отангдек улуг* мақоли орқали изоҳланади.

Юқорида келтирилган инглиз халқ мақоли ўқувчиларнинг таълим олишида ўқитувчининг аҳамияти ва илк таълим, билим берган устози ўқувчилар учун қадрли эканлиги изоҳланган. Шунингдек, биринчи муаллим инсоннинг юрагига тенглаштириляпти. Устозлар ҳақида гап борганда ҳазрат Алишер Навоийнинг бу байтларидан ошириб бир сўз айтмоқ мушкулдир: “Ҳақ йўлида ким сенга бир ҳарф ўқутмиш ранж ила, Айламак бўлмас адо онинг ҳақин юз ганж ила”³. Ушбу байтдан ҳам кўриниб турибдики, ўзбек лингвомаданиятида *устоз* сўзи ўзбек халқи учун қанчалик улуг эканлигини, *устоз* лексемаси *ота* сўзига тенглаштириши ҳам буни яна бир ёрқин далилидир. Шунингдек, инглиз ва ўзбек халқ мақолида ҳам устознинг нақадар улугланиши, қадрланиши таъкидланган. Инглиз халқ мақолида устоз инсон юрагига тенглаштирилган бўлса, ўзбек халқ мақолида отага тенглаштирилган.

Инглизча *Jack is as good as his master*⁴ мақоли ўзбек тилида “шогирд устозидек яхши” маъносини беради. Бу ўзбек тилида *Шогирд устозидан ўтмас, кор йитар* мақоли орқали ифодаланади. Инглиз халқ мақолида фойдаланилган *Jack* лексемаси атоқли от бўлиб, инглиз халқининг ўғил болларига атаб қўядиган исм ҳисобланади. Биз *Jack* лексемаси орқали бу мақол инглиз халқи мақоли эканлигини билиб олишимиз мумкин. Мақолда *Jack* лексемасига ўзбек тилидаги *шогирд* сўзи эквивалент бўлади. *Jack* ва *шогирд* сўзлари ҳар икки тилда халқ учун бир хил вазифани бажармайдиган сўзлар бўлишига қарамасдан, улар ўзига хос фойдаланиш функцияларига эгадир. Бу ўринда халқ ўзига хос ва мос бўлган терминдан фойдаланади. Шунинг учун ҳам мақолнинг ўзбекча вариантида *шогирд* сўзи ишлатилган. Агар мақолларнинг маъно-мазмунини таҳлил қиладиган бўлсак, икки халқда ҳам шогирднинг устозидан ўтиши ҳақида сўз борган.

Инглизча *Many pupil has gained more wealth than his master* мақоли ўзбек тилида “кўп ўқувчилар устозидан кўра кўп бойликка эга бўлади” маъносини беради. Юқорида келтирилган инглиз халқ мақолига нисбатан ўзбек тилида *Устоздан шогирд ўзар* мақоли ишлатилади. Инглиз халқ мақолида *wealth* лексемаси иштирок этган *wealth* сўзини маъноси ўзбек тилида бойлик деган

² Нармуратов З. Қисқача икки тилли илм-маърифат паремиологик луғат. – Тошкент, “ADAST POLIGRAF” 2020. – Б.14.

³ <https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/5663>

⁴ Нармуратов З. Қисқача икки тилли илм-маърифат паремиологик луғат. – Тошкент, “ADAST POLIGRAF” 2020. – Б.14-17.

маънони билдиради. Ўзбек халқ мақолида эса *бойлик* лексемаси иштирок этмаган. Маълумки, халқ турмуш тарзида мавжуд нарсалар ёки кундалик юмушлар мақоллар орқали ифодаланади. Инглиз халқ мақолида шогирднинг кучи *бойлик* билан ўлчанапти. Ўзбекча мақолда эса шогирдни юксак даражага кўтариб ишонч билдириляпти. Бироқ бу икки тилда ифодаланган мақолнинг маъно-мазмунини тенг бўлгани билан уларда ишлатилган айрим сўзлар фақат шу тилга оид лексемалардир. Агар мақолларнинг маъно мазмунини таҳлил қиладиган бўлсак, инглиз халқ мақолида ҳам ўзбек халқ мақолида ҳам шогирдни устозидан ўтиши ҳақида таъкидланган.

Хулоса ўрнида шу айтиш керакки, юқорида таҳлил қилинган ҳар икки тилдаги мақолларнинг маъноларини очиб беришда айнан уларнинг лингвомаданий хусусиятлари эътиборга олинди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти // [www/ziyouz.com kutubxonasi].
2. Нармуратов З. Қисқача икки тилли илм-маърифат паремиологик луғат. – Тошкент, “ADAST POLIGRAF” 2020. – 84 б.
3. <https://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/5663>

PREDGRAVIDAR DAVR - HOMILADORLIKKACHA BO'LGAN DAVR

Shohsanam Umirjonova Valixon qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi

2-kurs magistranti akusherlik va ginekologiya

Predgravidar (homiladorlikkacha bolgan) davrda

Covid-19 bilan kasallangan homilador ayollar klinik holati

Annotatsiya: Mazkur maqolada predgravidar davr - homiladorlikkacha bo'lgan davr, platsenta ona qornidagi homilaning hazm a'zolari funksiyasi, o'sayotgan homila organizmining rivojlanishi va hayot faoliyati uchun zarur moddalar, vegetativ asab tizimining tonusi haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: predgravidar davr, homiladorlik, platsenta, vegetativ asab tizimi, tonus, fiziologik o'zgarishlar.

Kirish:

Hazm bezlari va a'zolari ona qornidagi hayot davridayoq ishlay boshlaydi. Homiladorlikning IV–V oyida jigar glikogenni sintez qiladi va o't-safro ishlab chiqaradi, homila ichagidagi ibtidoiy axlat hosil bo'ladi. Mekoniyda suv, o't-safro, ichga yutilgan tuk, homila terisidagi epidermis tangachalari va yog' bezlarining sekreti bor, mekoniy tashqi ko'rinishda quyuq sarg'ish massadan iborat.

Oziq moddalar homilaga ona organizmidan platsenta orqali yetib boradi. Platsentadan ishlanib chiqqan fermentlar oziq moddalarni parchalaydi. Ona qonidagi oqsillar, yog'lar va uglevodlar platsenta vorsinkalarida ushlanib qolib, fermentlarning murakkab ta'siriga uchraydi va homila organizmining o'zlashtirishi uchun yaroqli holatda unga o'tadi. Oqsil va uglevodlarning parchalanishidan hosil bo'ladigan ba'zi moddalar, shuningdek anorganik tuzlar va suv platsenta orqali diffuz yo'li bilan o'tadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

O'sayotgan homila organizmining rivojlanishi va hayot faoliyati uchun zarur moddalar –vitaminlar ham platsenta orqali onadan homilaga o'tadi. Shunday qilib, homilaning rivojlanishi ona organizmidan keladigan oziq moddalarga butunlay bog'liq. Modomiki shunday ekan, homiladorlik vaqtida to'g'ri ovqatlanish ona organizmi uchungina emas, qornida o'sayotgan homilasi uchun ham juda asosiy ahamiyatga egadir.

Homilador ayol organizmida vitaminlar yetishmaganda ham homilaning shakllanishi buzilishi va bola tushishi mumkin. Homilaning rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan gormonlar platsentada ishlab chiqilib, onadan homilaga o'tib turadi. Bu vaqtda homilaning ichki sekretiya bezlari faoliyat ko'rsatmaydi. Homilaning ichki sekretiya a'zolari ishlay boshlagach, ulardan chiqadigan gormonlar platsenta

yordamida ona organizmiga o'tadi. Homilaning me'da osti bezidan chiqadigan gormon diabetli ona organizmiga o'tib, bu kasallikning o'tishini aksari yengillashtirishi aniqlangan. Ona qornida rivojlanayotgan homilaga kislorod, oqsillar, yog'lar, uglevodlar, tuzlar, vitaminlar va boshqa moddalar hafta sayin tobora ko'p talab qilinadi. Bu moddalarning barchasi homilaga ona organizmidan o'tib turadi, homiladagi modda almashinuv natijasida hosil bo'lgan chiqindilar ona qoniga o'tadi va uning chiqarish a'zolari orqali chiqib ketadi.

Natijalar:

Ma'lumki, homilador ayol organizmi qo'shimcha ish bajaradi, bu esa eng asosiy tizim va a'zolar faoliyatining kuchayishini yoki qayta tuzilishini talab etadi. Homila rivojlanishiga aloqador bo'lgan yangi muhit ta'siri bilan homilador ayol organizmida ko'pgina murakkab o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bular fiziologik o'zgarishlar bo'lib, homilaning to'g'ri rivojlanishiga yordam beradi, ayol organizmini tug'ruqqa va bola emizishga tayyorlab boradi.

Markaziy asab tizimidagi o'zgarishlar refleks yo'li bilangina emas, balki gormonlar ta'sirida ham kelib chiqadi. Bir qancha ichki sekret bezlarining faoliyati homiladorlik boshidanoq o'zgaradi. Shunga ko'ra, organizmda qon bilan aylanib yuruvchi gormonlar nisbati o'zgaradi. Bu gormonal o'zgarishlar ham asab tizimining va boshqa a'zolarining faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama:

Homilador ayollarda bosh miya bilan orqa miyaning qo'zg'aluvchanligi o'zgaradi. Homiladorlikning III–IV oyigacha bosh miya po'stlog'ining o'zgaruvchanligi kamayadi, so'ngra homiladorlik oxirigacha ortib boradi. Homiladorlik mobaynida markaziy asab tizimining pastroqdagi bo'limlari va bachadon asablarining qo'zg'aluvchanligi pasayib turadi. Reflektor qo'zg'aluvchanlik shu sabab pasayganidan, bachadon inert bo'lib, tinchlanadi, bu esa homiladorlikning tekis kechishiga yordam beradi.

Tug'ruqdan oldin orqa miya va bachadon asab elementlarining qo'zg'aluvchanligi oshadi, bu esa dard va to'lg'oq tutishiga imkon beradi. Homiladorlik vaqtida bosh miya po'stlog'idagi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining tavsifi o'zgaradi; bosh miya po'stlog'i va po'stloq ostidagi tuzilmalarning o'zaro munosabatlari ham o'zgargani qayd etiladi. Homilador ayollarda periferik asablar qo'zgaluvchanligi oshadi, dumg'aza va belida nevrologik og'riqlar paydo bo'ladi, boldir muskullari tortishib kichrayadi. Bu o'zgarishlarning barchasi keyinchalik izziz o'tib ketadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, homiladorlikka aloqador o'zgarishlarning kelib chiqishi va taraqqiy etishini markaziy asab tizimi idora qiladi. O'sayotgan homila tuxumi bachadonning asab oxirlariga ta'sir qiladi ta'siroat asab yo'llari orqali markaziy

asab tizimiga o‘tadi. Markaziy asab tizimida tegishli reaksiyalar sodir bo'ladi; shu reaksiyalar ta'sirida turli a'zo va tizimlar faoliyati o'zgaradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Allayorov Ya.N. “Reproduktiv salomatlik va kontraseptiv texnologiya”, «Istiqbol», T., 2005.
2. Allayorov Ya.N. “Akusherlik” “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2011.
3. Allayorov Ya.N., Tosheva D.G., Yusupova D.O‘. “Onalikda hamshiralik parvarishi”, “Voris” nashriyoti, T., 2012.
4. Rahimov A.U., Melikulov X.M. “Akusherlikda gemorragik shokning zamonaviy muammolari”, “Istiqlol”, T., 2005.
5. Ziyayeva M.F., Mavlonova G.X. “Ginekologiya”, “O‘qituvchi”, T., 2012.

USEFUL STRATEGIES TO IMPROVE SPEAKING SKILLS

Shorakhmetov Shotillo Safarovich

*Teacher of English language department,
Chirchik State Pedagogical University*

Abstract: This article examines the different circumstances under which infant and adult learners develop speaking skills. We will see the facilities or difficulties in both cases in order to focus on the real possibilities of adults to develop a high level of speaking proficiency. We will see what the role of the teacher is in order to improve the learners skills, the features of oral communication that need to be improved and which strategies can be used to overcome the difficulties below.

Key words : oral presentation, imitating, reading, verbal, interactive process, self-correct.

Annotatsiya: Ushbu maqola chaqaloq va katta yoshdagi o'quvchilar nutq qobiliyatlarini rivojlantiradigan turli vaziyatlarni ko'rib chiqadi. Kattalarning yuqori darajadagi nutq malakasini rivojlantirish uchun real imkoniyatlariga e'tibor qaratish uchun ikkala holatda ham qulayliklar yoki qiyinchiliklarni ko'rib chiqamiz. O'quvchilarning malakasini oshirishda o'qituvchining roli qanday ekanligini, og'zaki muloqotning qaysi xususiyatlarini yaxshilash kerakligi va qiyinchiliklarni yengish uchun qanday strategiyalardan foydalanish mumkinligini o'rganamiz

Kalit so'zlar: og'zaki taqdimot, taqlid qilish, o'qish, og'zaki, interaktiv jarayon, o'z-o'zini tuzatish.

Аннотация: В этой статье рассматриваются различные обстоятельства, при которых дети и взрослые учащиеся развивают навыки говорения. Мы увидим возможности или трудности в обоих случаях, чтобы сосредоточиться на реальных возможностях взрослых развивать высокий уровень разговорной речи. Мы увидим, какова роль учителя в улучшении навыков учащихся, особенности устного общения, которые необходимо улучшить, и какие стратегии можно использовать для преодоления трудностей, описанных ниже.

Ключевые слова: устное изложение, имитация, чтение, вербальный, интерактивный процесс, самокоррекция.

Introduction

Speaking is "the process of building and sharing meaning through the use of verbal and non-verbal symbols, in a variety of contexts" (Chaney, 1998, p. 13) Speaking is an interactive process of constructing meaning that involves producing and receiving and processing information (Brown, 1994; Burns & Joyce, 1997). Speaking is a crucial part of second language learning and teaching. Despite its importance, for

many years, teaching speaking has been undervalued and English language teachers have continued to teach speaking just as a repetition of drills or memorization of dialogues. However, today's world requires that the goal of teaching speaking should improve students' communicative skills, because, only in that way, students can express themselves and learn how to follow the social and cultural rules appropriate in each communicative circumstance, therefore, recent pedagogical research on teaching students conversation has provided some parameters for developing objectives and techniques.

Speaking English is the main goal of many adult learners. Their personalities play a large role in determining how quickly and how correctly they will accomplish this goal. Those who are risk-takers unafraid of making mistakes will generally be more talkative, but with many errors that could become hard to break habits. Conservative, shy students may take a long time to speak confidently, but when they do, their English often contains fewer errors and they will be proud of their English ability. It's a matter of quantity vs. quality, and neither approach is wrong so how shall we prioritize the two clearly important speaker goals of accurate (clear, articulate, grammatically and phonologically correct) language and fluent (flowing, natural) language? However, if the aim of speaking is communication and that does not require perfect English, then it makes sense to encourage quantity in your classroom. Break the silence and get students communicating with whatever English they can use, correct or not, and selectively address errors

Speaking English confidently is an important goal for many. Often, we hesitate because we are afraid of making mistakes or embarrassing ourselves in front of others. Sometimes mistakes are unavoidable. But like any other skill, you can improve your spoken English if you practice regularly and follow these simple techniques.

The first step in improving your speaking skills is actually working on your listening.

Listening to English has several benefits – it allows you to pick up new words, phrases, and ways to respond in conversations. Secondly, listening provides opportunities to understand pronunciation, how some words are omitted when speaking, how some are joined together, the rhythm, the intonation, and the sounds of language.

What should you listen to? There are many resources available to you to listen to for free. Start with short English clips or videos: pick your favorite English TV show or YouTube channel. Listen to a clip and notice carefully what the characters are saying. Repeat any dialogues or phrases that interest you. Replay the same clip until you understand every word. You could also turn on the subtitles or look at the transcript of the video if available and practice saying the dialogues with the characters.

The third most interesting way to improve your listening and speaking is by listening to audio books. Audio books have become very popular over the past couple of years. They are great for people who have no time to invest in reading books. They are also a wonderful way to perfect your pronunciation.

Imitating or copying someone is a wonderful way to improve your speaking skills. Not convinced? Watch babies and children – how do they learn a language? They copy everything an adult says.

Another benefit of imitation is that it will help you become more accurate in English without having to learn grammar rules. With lots of practice you will begin to remember chunks of words and phrases. This helps in remembering word patterns in a sentence and how certain words go with others.

To effectively improve your speaking skills, you need to follow these steps:

- **Listen:** Pick your favorite video or audio clip from any of the sources provided in the earlier section of this article. Play the audio and listen to it carefully. Play as many times as you like to understand how each word is spoken.

- **Repeat and record:** After playing the audio, repeat saying the words and conversations exactly as you heard. Pay special attention to the intonation, stress, and rhythm of language. Record yourself while repeating the words. Recording will provide you an opportunity to listen to yourself and self-correct.

- **Compare:** Listen to the audio again and compare it with your recording. Does it match? Note down changes that you may need to make.

- **Correct:** Repeat the entire process again until you get better and more accurate.

As this process involves listening to the same audio clip several times, choose a topic that is interesting to you. If you stick with the routine, you will see improvement in your pronunciation, vocabulary, accuracy, and overall speaking abilities in no time!

Reading is yet another important skill to have when learning a language. Whether you prefer a novel or an article, reading a few minutes every day will help you acquire new vocabulary.

The most common reason why people hesitate with reading is that it takes quite a lot of time to read a book from start to finish. However, when learning English, reading even for a few minutes is greatly beneficial. Short articles or notes in English are great for this. They only take a few minutes to read and are quite easy to find.

